


## XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

### Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(2023 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga


nisbatan o'sish sur'ati bilan)




**Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha  
2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



### Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, yanvar- dekabr oylarida)




### Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar-dekabr oylarida, birlikda)





**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar**  
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,3** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish  
■ O'rmon xo'jaligi  
■ Baliqchilik xo'jaligi





*Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta'rifi*

## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxona va tashkilotlarning  
umumiy soni o'tgan yilning  
shu davriga nisbatan **13,1**  
foizga oshdi



197



Tog'-kon sanoati va ochiq  
konlarni ishlash

3 329




Ishlab chiqarish sanoati

33



Elektr, gaz, bug' bilan  
ta'minlash va havoni  
konditsiyalash

74




Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 633 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 13,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,6 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 27,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %) o'sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 91,7 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) tashkil etgan va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 12,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,5 %) tashkil etdi.

**Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**


(2023 yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**




**Mikrofimlar**



**Kichik korxonalar**



**Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan  
korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida**





2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 501 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 103,3 % ni (jami qurilishdagi ulushi 59,6 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 35,3 % ni (jami qurilishdagi ulushi 13,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 95,2 % ni (jami qurilishdagi ulushi 26,8 %) tashkil etdi.




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida (2023 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 7 434 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga oshdi.


Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 11,8 % ga (jami savdodagi ulushi 67,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 29,1 % ga (jami savdodagi ulushi 23,4%), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 27,1 % ga (jami savdodagi ulushi 9,2 %) o'sishidir.



**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**



**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**

**Mikrofimlar**


**Kichik korxonalar**





### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



#### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

#### Mikrofimlar

#### Kichik korxonalar



### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 497 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 9,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,9 %) o'sgan va yashash bo'yicha xizmatlarning 107,0 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,1 %) tashkil qiladi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**  
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



### Oilaviy korxonalar soni

(2023 yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 2 324 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 274 ga yoki 13,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 172 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 240 ga yoki 12,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 391 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,0 % ni tashkil etgan.


### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2023 yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 17 827 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 466 ga yoki 16,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 074 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 391 taga yoki 16,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 261 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,6 % ni tashkil etgan.




### **Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni**

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



### **Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni**

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 198 tani tashkil etib, ulardan 196 tasi yoki 98,9 % faoliyat ko‘rsatmoqda.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 17 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

■ O'sish sur'ati ■ 2023 - y. ■ 2022 - y.



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni**  
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)


|                                      | <b>Jami</b> | <i>shundan:</i>        |                        |
|--------------------------------------|-------------|------------------------|------------------------|
|                                      |             | <b>qo‘shma korxona</b> | <b>xorijiy korxona</b> |
| <b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b> | <b>196</b>  | <b>109</b>             | <b>87</b>              |
| <i>tumanlar:</i>                     |             |                        |                        |
| Amudaryo                             | 7           | 3                      | 4                      |
| Beruniy                              | 10          | 4                      | 6                      |
| Bo‘zatov                             | 7           | 7                      | -                      |
| Qorao‘zak                            | 11          | 7                      | 4                      |
| Kegeyli                              | 6           | 5                      | 1                      |
| Qo‘ng‘irotd                          | 13          | 9                      | 4                      |
| Qonliko‘l                            | 7           | 3                      | 4                      |
| Mo‘ynoq                              | 39          | 24                     | 15                     |
| Nukus                                | 9           | 4                      | 5                      |
| Taxiatosh                            | 9           | 2                      | 7                      |
| Taxtakopir                           | 4           | 2                      | 2                      |
| To‘rtko‘l                            | 9           | 6                      | 3                      |
| Xo‘jayli                             | 4           | 2                      | 2                      |
| Chimboy                              | 5           | 4                      | 1                      |
| Shumanay                             | 3           | 1                      | 2                      |
| Ellikqal‘a                           | 6           | 3                      | 3                      |
| Nukus sh.                            | 47          | 23                     | 24                     |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 47 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 24,0 %), Mo‘ynoq 39 ta (19,9 %), Qo‘ng‘irotda 13 ta (6,6%), Qorao‘zak 11 ta (5,6%), Beruniy 10 ta (5,1%), Nukus tumani va To‘rtko‘l tumanida 9 ta (4,6 %), Taxiatoosh 9 ta (4,6 %), Qonliko‘l va Bo‘zatovda 7 ta (3,6 %), Kegeyli va Ellikqal‘a tumanlarida 6 ta (3,1 %) ni tashkil etadi.



### Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 27 903 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahri (27,7 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,6 %), Ellikqal'a (6,4 %), Qo'ng'iro't (6,0 %), Xo'jayli (5,4 %), Nukus (4,1 %), Chimboy (4,2 %), Kegeyli (3,2 %), Taxiatosh (3,1 %), Qorao'zak (2,8 %), Mo'ynoq (2,6 %), Qonliko'l (2,7 %), Shumanay tumanlarida (2,4 %), Taxtakopir (1,9 %) va Bo'zatov (1,6%) tumanlari hissalari ga to'g'ri keladi.

### Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022 yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 4 472 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi Nukus shahrida (22,7 %), To'rtko'l (8,8 %), Beruniyda (9,0 %), Ellikqal'a (8,1 %), Amudaryo (8,0%), Qo'ng'iro't (7,6 %), Xo'jayli (5,2 %), Kegeylida (3,7 %), Chimboy (4,6 %), Taxiatosh (3,0 %), Nukus (3,3 %), Qorao'zak (3,1 %), Taxtakopir (2,8 %), Mo'ynoqda (2,8 %), Qonliko'l (2,7 %), Shumanayda (2,8 %), Bo'zatov (1,8 %) tumanlari ulushiga tegishli.




**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning  
hududlar kesimidagi soni**

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning  
hududlar kesimidagi soni**

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 17 074 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahrida (32,0 %), To‘rtko‘l (9,8 %), Beruniy (7,7 %), Amudaryo (7,1 %), Qo‘ng‘irot (5,7 %), Xo‘jayli (5,6 %), Nukus (4,7 %), Ellikqal’a (4,5 %), Chimboy (4,4 %), Kegeylida (3,5 %), Mo‘ynoq (2,9 %), Qorao‘zak (3,0 %), Taxiatosh tumanida (2,5 %), Bo‘zatov (1,8 %), Qonliko‘l (1,8 %), Shumanay (1,7 %), Taxtako‘pir (1,3%) tumanlari hissasiga tegishli.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.